O‘SMIR SHAXSIY FAZILATLARINING KASB TANLASHDAGI ROLI

Umurzaqova Nodira Mamurjonovna
E-mail: nodiraumurzaqova42@gmail.com

Received: 30.10.2025
Revised: 31.10.2025
Accepted: 01.11.2025

Kalit so‘zlar: o‘smirlar, kasb tanlash, motivlar, kasbiy orientatsiya, psixologik metodlar, pedagogik tadqiqot.

Keywords: adolescents, choice of profession, motives, professional orientation, psychological methods, pedagogical research.

Ключевые слова: подростки, выбор профессии, мотивы, профессиональная ориентация, психологические методы, педагогическое исследование.

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlar orasida kasb tanlash motivlarini o‘rganish muammosi ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda ichki (qiziqish, qobiliyat, shaxsiy istak) va tashqi (ota-ona ta’siri, ijtimoiy me’yorlar, kasbning obro‘si) motivlarning o‘smirlarning kasb tanlash qarorlariga ta’siri tahlil qilingan. Maqolada so‘rovnomalar, individual intervyular, observatsiya, psixologik testlar va guruhli mashg‘ulotlar kabi metodlar orqali o‘smirlarning motivlarini aniqlash usullari tavsiflangan. Tadqiqot natijalari pedagoglar va psixologlarga yoshlarni kelajakdagi kasbiy faoliyatga to‘g‘ri yo‘naltirishda amaliy yordam beradi.

Abstract. This article considers the problem of studying the motives of choosing a profession among adolescents. The study analyzes the influence of internal (interest, ability, personal desire) and external (parental influence, social norms, reputation of the profession) motives on adolescents' decisions to choose a profession. The article describes methods for determining the motives of adolescents using methods such as questionnaires, individual interviews, observation, psychological tests and group exercises. The results of the study provide practical assistance to educators and psychologists in correctly directing young people to future professional activities.

Аннотация. В статье рассматривается проблема изучения мотивов выбора профессии подростками. В исследовании анализируется влияние внутренних (интерес, способности, личное желание) и внешних (влияние родителей, социальные нормы, репутация профессии) мотивов на решения подростков о выборе профессии. В статье описываются методы определения мотивов подростков с использованием таких методов, как анкетирование, индивидуальное интервью, наблюдение, психологическое тестирование и групповые упражнения. Результаты исследования оказывают практическую помощь педагогам и психологам в правильной ориентации молодых

людей на будущую профессиональную деятельность.

Аннотация. В статье рассматривается проблема изучения мотивов выбора профессии подростками. В исследовании анализируется влияние внутренних (интерес, способности, личное желание) и внешних (влияние родителей, социальные нормы, репутация профессии) мотивов на решения подростков о выборе профессии. В статье описываются методы определения мотивов подростков с использованием таких методов, как анкетирование, индивидуальное интервью, наблюдение, психологическое тестирование и групповые упражнения. Результаты исследования оказывают практическую помощь педагогам и психологам в правильной ориентации молодых людей на будущую профессиональную деятельность.

O‘smirlik - bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. o‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Mazkur yosh davrida jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. Balog‘atga yetishning birlamchi va ikkilamchi alomatlari o‘sa boshlaydi: o‘g‘il bolalarda ovoz o‘zgaradi, yo‘g‘onlashadi, mo‘ylov va soqol paydo bo‘ladi, qizlarda esa ko‘krak bezlari rivojlanadi va hokazo. Natijada boshqa jinsga qiziqish ortadi, orzu, xohish, nozik tuyg‘u, sog‘inch, iztirob kabi kechinmalar paydo bo‘ladi.

Bu davrda o‘smirning bilishga bo‘lgan qiziqishida keskin rivojlanish sodir bo‘ladi. Ilmiy-nazariy bilimlarning egallab olinishi o‘smir tafakkurining rivojlanishiga olib keladi. Buning ta’sirida isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyati paydo bo‘ladi. Maktabda o‘qitiladigan fanlar o‘smir uchun o‘z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo‘lib xizmat qiladi. J. Piajening ta’kidlashicha, «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta’siri - til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi». Bu borada o‘zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o‘z-o‘zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi. 11-12 yoshdan boshlab o‘smir endi mantiqiy fikrlab harakat qila boshlaydi. O‘smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o‘rgana

boshlaydi. O‘smir tafakkurning nazariy darajasiga qanchalik tez ko‘tarila olishi, o‘quv materiallarini tez va chuqur egallashi uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O‘smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik o‘ta qiziquvchanlik hamda atrofdagilarga o‘z layoqatlarini namoyish etish, shuningdek, ularda yuqori baho olish ehtiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog‘liq. Ular muloqotda kattalarning qo‘llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o‘smirga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O‘smirlar muloqoti nihoyatda o‘zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O‘zini kattalardek his qilish tuyg‘usi bolaning shaxsan o‘ziga bo‘lgan munosabatini muayyan darajada o‘zgartiradi va har qanday ichki munosabat singari bu ham tashqi munosabatlarning ta’siri ostida, mazkur shaxsga nisbatan boshqa odamlarning munosabatlari tashkil topadi.

5-6 sinf o‘quvchilariga sinfdagi o‘zi egallagan mavqeyiga katta e’tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6-sinfdan boshlab, o‘quvchilar o‘z tashqi ko‘rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o‘zaro munosabatlariga e’tibor bera boshlaydilar. 7-sinf o‘quvchilarida esa o‘z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o‘quvchilari esa mustaqillik, o‘ziga xoslik, do‘stlik va o‘rtoqlik bilan bog‘liq bo‘ladigan shaxsiy xislatlar paydo bo‘ladi O‘smirlik yoshidagi o‘quvchilarning emotsional xususiyatlari. O‘smirlik yoshida, taxminan 13-14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o‘zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta’lim ta’siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o‘sadi. O‘smirlar dunyoqarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bilan qiziqa boshlaydilar

O‘smir ulg‘aygan sari unda “Ideal Men”, “Axloqiy Men” va “Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim, dunyoqarash, e’tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e’tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash, shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Hozirgi davrda o‘smirlarni voyaga yetkazishning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari, hatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni kamol toptirishda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan xolda ta’lim-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik muhitni yaratadi.

Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik

o‘sish oldinroq namayon bo‘lmoqda, Shu sababli bizda o‘g‘il va qizlarni 10-11 dan 14-15 yoshigacha o‘smirlik yoshi deb hisoblanadi.

O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burilishlar seziladi. Bu o‘zgarishlar jarayonida qiyinchiliklar tug‘iladi. Bular avvalo ta’lim jarayonida ro‘y beradi: ya’ni axborot, ma’lumotlarni bayon qilish shakli, uslubi va usullari o‘smirni qoniqtirmay qo‘yadi. Uni o‘z qadr – qimmati haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma’lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo‘lib qoladi. O‘smir hulqidagi bunday o‘zgarishlar tajribasiz o‘qituvchilarni va ota-onalarni tashvishga soladi, hamda ularning o‘smirga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiradi. Buning natijasida kelishmovchiliklar yuzaga keladi.

Xulosa. O‘smirlarda kasb tanlash motivlarini o‘rganish ularning shaxsiy rivojlanishi va kelajakdagi professional faoliyatini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki motivlar — qiziqish, qobiliyat va shaxsiy istak — va tashqi motivlar — ota-ona ta’siri, jamiyat me’yorlari va kasbning obro‘si — birgalikda o‘smirlarning kasb tanlash qarorlariga ta’sir qiladi. O‘rganish metodlaridan so‘rovnomalar, individual intervyular, observatsiya, psixologik testlar va guruhli mashg‘ulotlar eng samarali vositalar sifatida foydalanilishi mumkin. Turli metodlarni kombinatsiyalash orqali o‘smirlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularni kelajakdagi kasbiy yo‘nalishga to‘g‘ri yo‘naltirish va shaxsiy rivojlanishlariga ko‘maklashish mumkin. Shu bilan birga, pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish yoshlarni jamiyatga foydali va muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakllantirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, R. (2017). *Psixologik testlar va kasbiy orientatsiya*. Toshkent: Ilmiy nashr.
2. Abdullayev, S. (2018). *O‘smirlarning kasb tanlash psixologiyasi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
3. Islomova, M. (2020). *Kasb tanlash motivlarini o‘rganish metodlari*. Toshkent: Pedagogika nashriyoti.
4. Xolmatov, A. (2021). *Pedagogik metodlar va o‘smirlar bilan ishlash*. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti.